

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI TARIXI YARATILISHIDA TA’LIMNING O‘RNI VA MUHIM JIHATLARI

Boyzoqova Nigora Abdurahmonovna

Guliston olimpiya va paralimpiya markazi tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning yangi tarixi yaratilishiga urg‘u qaratiladi. Mana shu qisqa davr mobaynida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Ta’lim sohasida erishilgan natijalarga pedagogik niohda yondashiladi. Maqolada tahlil qilingan voqealar bizga notanish yoki davr nuqta’i nazaridan uzoq emas. Unda shu bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilgan o‘zgarishlar bayon qilinadi. Maqola aniq tahlillarga asoslangani va mulohazalarga boyligi bilan e’tirofqa loyiqdir.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tarix, kecha va bugun, islohot, investitsiya, besh tashabbus, strategiya, innovatsiya, texnologiya, IT, zamonaviy infratuzilma, hamkorlik, gender tengligi, huquq, inson qadri, xalq manfaati.

Boyzokova Nigora Abdurakhmonovna

History teacher of Gulistan Olympic and Paralympic Center

Abstract: This article focuses on the creation of a new history of New Uzbekistan. The reforms implemented during this short period are analyzed. The results achieved in the field of education are approached from a pedagogical point of view. The events analyzed in the article are not unfamiliar to us or distant from the point of view of the era. It describes the changes made in our country today. The article is based on clear analysis and rich in opinions.

Key words: New Uzbekistan, history, yesterday and today, reform, investment, five initiatives, strategy, innovation, technology, IT, modern infrastructure, cooperation, gender equality, law, human value, public interest.

Бойзокова Нигора Абдурахмоновна

Учитель истории Гулистанского олимпийского и паралимпийского центра

Аннотация: Данная статья посвящена созданию новой истории Нового Узбекистана. Анализируются реформы, осуществленные за этот короткий период. Результаты, достигнутые в сфере образования, рассматриваются с педагогической точки зрения. События, анализируемые в статье, не являются для

нас незнакомыми или далекими с точки зрения эпохи. В ней описываются изменения, происходящие в нашей стране сегодня. Статья основана на четком анализе и богата мнениями.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, история, вчера и сегодня, реформа, инвестиции, пять инициатив, стратегия, инновации, технологии, информационные технологии, современная инфраструктура, сотрудничество, гендерное равенство, право, человеческая ценность, общественный интерес.

Tarix kishilik jamiyati haqidagi aniq ma'lumotlarga asoslangan va kishilik jamiyatining rivoji uchun xizmat qiladigan voqelikning unutilmas bo'lagidir. Albatta, har qanday kechgan yoki kechayotgan voqea tarixda qolavermaydi. Shuning uchun ham maqola avvalida tarixga voqelik bo'lagi sifatida yondashildi. Chunonchi, qachonki, voqelik sof va real bo'lsa, unga hech qanday mubolag'a aralashmasa, u tarixga aylanadi va unutilmaydi. Agar Amir Temur va Boburning, Navoiyning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy jasoratlari oddiy to'qima bo'lganida edi, ular allaqachon tarix zarvaraqlaridan unutilgan bo'lardi. Shuning uchun ham mustaqillikdan boshlab yurtimizning asl tarixini o'rganishga hamda yosh avlodga o'rgatishga ulkan e'tibor qaratilmoqda. Basharti, Sobiq ittifoq davrida ittifoqqa a'zo davlatlarga o'z tarixlari va tarixiy qahramonlari dushman sifatida o'rgatilib, aksincha rus qahramonlari, ruh ruhiyati ularning ong-u shuuriga singdirilgan. Tabiiyki, mustaqillikning dastlabki yillari ana shu ongni haqiqiy tarixga yuzlashtirish – o'tish davri sifatida o'z vazifasini bajargan. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda ulkan islohotlar, keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi yetti yil davomida prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar negizida Yangi O'zbekiston degan atama shakllandi. Darhaqiqat, ushbu atama shakllangani bilan uning tarixi, madaniyati, adabiyoti va davr ijtimoiy muhiti ham shakllanadi. Demak, Yangi O'zbekistonning tarixi ham o'rganishga, tadqiq qilishga molikdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir nutqida shunday degan edi: “Yaqinda Xavfsizlik kengashi yig'ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O'sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo'q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g'urur, iftixor, aql-zakovat. Men Boburni bugun ko'p gapiryapman. Quyi palata yig'ilishida ham gapirdim. Umuman, shu kunlarda men tariximizni ko'p o'qishga harakat qilyapman. Ming afsuski, bizga sovet davrida Pushkin, Lermontovning bobolari xoki qayerda to'kilganini o'qitgan xolos. Alisher Navoiy yoki Boburlarni o'qitmagan. Rus tilida o'qigan odamlar Pushkin, Lermontovni o'qigan. Biz hech kimga Boburni o'qitmaganmiz. Uning ekologiya haqida yozganlarini o'qisangiz, hozirgi davrda

yashaydi, deb o‘ylaysiz. Yoki, shuncha yil harbiy maktablarimiz Suvorov nomida bo‘lgan. Birorta odam aytmaganki, mustaqil bo‘lganimizga necha yil bo‘ldi, nega maktab nomi Suvorov bo‘lishi kerak, deb. Biz Suvorov maktablarini Temurbeklar maktabiga o‘zgartirdik”.

Chunonchi, davlatimiz rahbari aytgan so‘zlar haqiqat. Tarixga nazar tashlasak, ittifoq davrida o‘zbeklarga o‘zbek ruhiyati, madaniyatidan ko‘ra ruh madaniyati yaqinlashtirilgan. Biroq bugungi kunda haqiqiy millatimiz tarixi yozilmoqda. Tarixga yozsa arzigulik va tarixda qoladigan ishlar amalga oshirilmoqda.

Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Qodiriy, Cho‘lpon, Elbek, Avloniy kabi ajdodlarimiz orzu qilgan kunlar – mustaqillik kunlari insonga o‘z qadrini qaytarib berdi. Chunonchi, bugungi kunda tilimizdan “inson qadri”, “xalq manfaatlari”, “inson va jamiyat”, “davlat inson uchun”, “ta’lim, ta’lim, ta’lim”, “xalq manfaatlari har nedan ulug‘”, “innovatsiyalar va investitsiyalar”, “faol tadbirkorlik”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “besh muhim tashabbus”, “xususiy oliy ta’lim”, “akademik erkinlik”, “xususiy MTM”, “bir fermerga o‘n yosh”, “yoshlar siyosati”, “yoshlar parlamenti”, “yoshlar agentligi”, “yoshlar instituti” kabi atamalar, so‘zlar, so‘z birikmalari munosib o‘rin olgan. Ushbu atamalarning hayotimizdagi o‘rnini, amaldagi o‘zgarishlarda amaliy ishlarni ko‘rmoqdamiz. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida: **“Yangi O‘zbekistonni buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, mehnatkash, azmu shijoatli, adolatni qadrlaydigan xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz hamda islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz zarur”**, deb ta’kidlagani maqsadimiz qat’iyligiga yana bir dalolat. **“Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”** degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotgani ana shu serqirra jarayonning mazmun-mohiyatini anglatadi. Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori Sharifboy Ergashev “Yangi O‘zbekiston” saytida e’lon qilingan “Ta’lim tizimidagi islohotlar buyuk yangilanishlar poydevoridir” maqolasida quyidagi aniq raqamlarga to‘xtalib o‘tadi: “2017-yili yurtimizda 5 ming 211 ta bog‘cha faoliyat yuritgan bo‘lsa, joriy yilda bu raqam – tasavvur qiling – 19 ming 316 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda oilaviy bog‘chalarning joriy etilishi, bir qator imtiyozlar berilishi tufayli 13 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu maqsadli islohotlar natijasida maktabgacha ta’limga qamrov darajasini 62 foizga, 6 yoshdagi bolalar o‘rtasida esa 77 foizga yetkazishga erishildi. Yangi turdagi ta’lim maskanlari, xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Birgina 2020-yilni oladigan bo‘lsak, yurtimizda matematika fani bo‘yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo‘yicha 28 ta, informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil etildi.

Buni 2017 — 2020-yillarda o‘quvchilarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 30 ta medalni qo‘lga kiritgani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Yoshlarni talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish uchun o‘tgan o‘quv yilida mamlakatda 339 ta kasb-hunar maktabi, 194 ta kollej va 195 ta texnikum faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar yuz berayotganligini quyidagi ko‘rsatkichlar tasdiqlaydi: yurtimizda so‘nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazildi. Qabul kvotasi 3 barobar oshirildi. Endilikda bitiruvchi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 28 foizga yetkazildi. Yaqin kelgusida ushbu ko‘rsatkichni 50-60 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda”.

“Tarix – haqiqatlar majmuasi bo‘lsagina u tarixda qoladi. Aksincha, har qanday yolg‘on, ig‘vo va bo‘rttirishlarga boy voqelik borki, unutilishga mahkumdir. Ammo unutilmaydigan tarix yozish imkoniyati hammaga ham berilavermaydi. Bu imkoniyat qo‘lingizda ekan, undan unumli foydalanish va ezgulik uchun xizmat qilish kerak”, - deydi mashhur hind siyosatchisi, jamoat va davlat arbobi Indira Gandi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti, tarixining boyishi uchun hissa qo‘shishimiz kerak. Chunonchi, Yangi O‘zbekiston tarixining yaratilishida ta’lim tizimining o‘rni beqiyos. Shu sababdan ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizning yangi tarixi – haqiqatni, ezgulikni, inson qadrini o‘zida mujassamlashtirgani uchun ham asl tarix vazifasini o‘tay oladi. Mana shu jarayonda tarixiylikni asragan holatda harakat qilishimiz lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.
2. Mirziyoyev Shavkat. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. 2021. “O‘zbekiston”
3. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida e‘lon qilingan besh muhim tashabbus matni.
4. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Majmua. GulDU. Tarix kafedrası.
5. President.uz
6. Ziyoz.uz
7. Saviya.uz
8. Xurshid Davron kutubxonasi.uz